ISSN: 3060-4613




| | | |
|---|---|---|
| 13.00.00 | 13.00.06 | 01.00.00 |
| 13.00.01 | 13.00.07 | 02.00.00 |
| 13.00.02 | 13.00.08 | 03.00.00 |
| 13.00.03 | 13.00.09 | 09.00.00 |
| 13.00.04 | 07.00.00 | 10.00.00 |
| 13.00.05 | 19.00.00 | 11.00.00 |

№6/2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 160 sahifa,
5-iyun, 2025-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Mizayeva Faroxat Odiljonovna** – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

***TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI***

***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Mizayeva Farokhat Odiljonovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan***
**Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich** – Doctor of Historical Sciences, Professor
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko'ra, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

Iqim oʻzgarishi muammolari va "yashil koʻnikmalar"ning rivojlanishi....14
Abdurashit Karimovich Avliyaqulov

TTJlardagi qizlarni qoʻllab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish boʻyicha ilgʻor xorijiy mamlakatlar tajribasini oʻrganish....18
Xasanboy U. Abdusamatov

Integrativ yondashuv boʻlajak oʻqituvchilarda ijodiy va tahliliy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishning asosiy omili....26
Jalilov Nodirjon Azamatovich

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning sibling munosabatlari diagnostikasi....30
Gʻayibova Nargiza Anorbayevna

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillari....33
Hakimova Gulmira Toʻxtatoshevna

Boʻlajak oʻqituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni muzey pedagogikasi vositasida rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari....37
Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi

Iqtisodiy savodxonlikni oshirishda oʻzbek tilining ta'siri....41
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Сторителлинг как инструмент формирования ценностных ориентаций старшеклассников....44
Умрихина Виктория Игоревна

Формирование эстетических предпочтений учащихся музыкальных школ в условиях инклюзивного образования на основе стилевого подхода....52
Ахунова Умида Ойбековна

Sun'iy intellektning ta'limga integratsiyasi: oʻqitish va boshqaruvdagi oʻrni....55
Abduxamidova Muyassar Xalimjon qizi

Buxorodagi jadidchilik harakatining oʻziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi....60
Axrorov Ixtiyor Doniyorovich

Inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuvida oila va maktabning roli....63
Dadaboyev Jahongir Sherdil oʻgʻli

Влияние длительной госпитализации на образовательную траекторию ребенка: междисциплинарный подход....67
Сайфутдинова Насиба Нурматовна

Oʻyinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va oʻziga xosligi....75
Otasheva Lola Shotoʻrayevna

Psixologik tadqiqotning umummetodologik va xususiy metodologik tamoyillari....78
Xodjimatova Nazira Toshmatovna, Mallayeva Gulshoda Maxmudjonovna

Rivojlanishida nuqsoni bor boʻlgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda inklyuziv ta'limning oʻrni....81
B. Xusniddinova

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida loyihaviy tadqiqotchilik koʻnikmalarini rivojlantirish....85
Zulaykho Samatovna Roʻziyeva

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ogʻzaki va yozma nutq koʻnikmalarini dars jarayonida rivojlantirish texnologiyasi....89
Xudaybergenova Nawrızbiyke Qanat qızı

Sonlarni obrazlar bilan bogʻlash orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi....92
Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna

Methodology of Teaching English to Preschool Children....96
Khurshida Tojimurodova

Malaka oshirish jarayonida yoʻriqchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy zaruriyati..100
Ch. B. Nalibayeva

Oʻqituvchilarning oʻquvchilar bilan hamkorlik munosabatlari....103
Gʻaniyeva Sayyora Saidmurod qizi

Falsafada haqiqatni izlash: empirizm va rasionallizmning oʻrni....106
Boymirzayeva Xurshida Sobirovna

Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun axborot bilan ishlashni o'rgatishning didaktik asoslari ........ 110
**Ismoilov Ravshan Yakubjon o'g'li**

An Evaluation of the Impact of The Theme-Based Approach on Young Learners' Speaking Development.. 113
**Khamraeva Gulchekhra Ibrakhimovna**

O'smirlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar ........ 118
**Majidov Jasur Baxtiyarovich, Xolmatova Dilorom Vahobjon qizi**

Informatika fanini o'qitishda mobil dasturiy vositalaridan foydalanish imkoniyatlari ........ 123
**Jo'rayev Ilhom Isxoqovich**

Muqimiy asarlari vositasida talabalarda kitobxonlik tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish ........ 126
**Muxlisa Satriddinovna Muhitdinova**

Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi ........ 132
**Nuritdinov Abrorbek Sayfiddin o'g'li**

Bo'lajak o'qituvchilarni ruhlantirish va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ........ 136
**Umarova Feruzabonu Bobir qizi, Samandarova Dildora Javlon qizi**

Tizimli-faoliyatli yondashuv asosida umumpedagogik akt kompetentlikni shakllantirish muammosining nazariy-metodologik jihatlari ........ 139
**Saloxiddinova Umidaxon Mansurjon qizi**

Nutqiy kamchiliklarni kamaytirishda o'yinlarning o'rni ........ 143
**Jabborova Oltinoy**

Matn bilan ishlash bosqichlari va ularning ingliz tilini o'rgatishdagi didaktik ahamiyati ........ 146
**Soliyev Umidjon Yulchivoyevich**

Ta'lim tizimini boshqarishda talabalar boshqaruvining qiyosiy tahlillari ........ 150
**Uzaqov Nomozali Hamdamovich**

Zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagoglarning boshqaruv malakasini rivojlantirish yo'llari ........ 153
**Z. M. Zarifova**

# OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILLARI



Hakimova Gulmira To'xtatoshevna
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti,
Ta'lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi boshlig'i
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-9340-5004

**Annotatsiya:** Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini rivojlantirishning ijtimoiy omillari yuzasidan fikr-mulohazalarga ega bo'lasiz.

**Kalit so'zlar:** maqsad, motivatsiya, sifat menejmenti, iqtisodiy islohot, xalqaro standartlar, ta'limni takomillashtirish, qonunchilik bazasi, g'oyalar tizimi.

**Abstract:** This paper presents opinions on the social factors influencing the development of quality in the higher education system.

**Key words:** goal, motivation, quality management, economic reform, international standards, improvement of education, legal framework, system of ideas.

**Аннотация:** У вас будут представлены мнения о социальных факторах развития качества образования в системе высшего образования.

**Ключевые слова:** цель, мотивация, управление качеством, экономическая реформа, международные стандарты, совершенствование образования, правовая база, система идей.

## KIRISH

Hozirda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirish har doim dolzarb masala bo'lib kelgan. Bugungi kunda ta'limning sifati nafaqat mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga, balki jamiyatning ma'naviy va madaniy darajasiga ham ta'sir qiladi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishning nazariy asoslari pedagogika va ta'limshunoslik ilmiy yo'nalishlarida keng muhokama qilinmoqda.

Ko'plab yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi, kechki va masofaviy bo'limlarning ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlardan biridir. Davlatimiz rahbari tomonidan oliy ta'lim muassasalariga umumiy davlat buyurtmasini tasdiqlash, bunda mamlakatimiz rivoji va mehnat bozori talablariga e'tibor qaratish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Yurtimizda raqobatbardosh malakali kadrlarga talab yuqori. Oliy ta'lim muassasasini rivojlantirish strategiyasi – bu "tashkilot samaradorligini ta'minlaydigan barcha qonuniyatlarni, tashqi va ichki sharoitlarni, maqsad va vazifalarni har tomonlama o'rganishga asoslangan tizimli harakatlar va ularni amalda amalga oshirishning keng qamrovli, uzoq muddatli rejasi"dir. Yuqoridagi tahlillarga asosan shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida turli xil rivojlanish strategiyalari yoki ularning kombinatsiyalaridan foydalanish mumkin. Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda ta'lim va bozor munosabatlarining maqbul kombinatsiyasini hisobga olish kerak.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida Rossiya Federatsiyasida ta'limni rivojlantirishga klaster yondashuvi individual subyektlar va umuman klaster ishtirokchilarining o'ziga xos afzalliklarini kuchaytiradigan ijtimoiy hamkorlik asosida amalga oshiriladigan klaster subyektlarining o'zini va o'zaro rivojlantirishga asoslangan (T.I. Shamova, Ye.I. Pavlova]). Rus tadqiqotchisi V.A. Bolotovning fikricha, klaster doirasida o'qituvchilarning o'zaro

dars berish imkoniyatini yaratish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ta’lim klasterlari tizimi bolaga yoshligidan rivojlanish vektorini topishga va kelajakda yuqori malakali mutaxassis bo‘lishiga yordam beradi.

Ta’lim tizimini zamonaviylashtirish jarayonlarini hisobga olgan holda, uning asosiy tamoyillari, g‘oyalari, uslubiy yondashuvlari va ko‘rsatmalari bo‘yicha bir qator o‘zbek olimlar – jumladan, U.Sh. Begimqulov, O. Musurmonova, M.S. Mustafayeva, B.R. Adizov, R.Sh. Axliddinov, Yu.N. Abdullayev, M.X. Mahmudov, R. Ishmuhammedov, L.V. Golish – o‘z ilmiy izlanishlarida biz ko‘tarib chiqayotgan ta’lim sifatini takomillashtirishdagi muammo, usul va vositalarni ilmiy va amaliy jihatdan asoslab, ta’limni ijodiy tashkil etish, oliy ta’limni takomillashtirish, ta’limni demokratlashtirish va boshqa xususiyatlar bo‘yicha izlanishlar olib borgan. O‘zbekiston ta’lim tizimida klasterlashtirish modelini tatbiq qilish esa so‘nggi yillarda ko‘zga tashlanmoqda. Ayniqsa, U.N. Hodjamqulov, S.A. Toshtemirova, A. Boymurodov, Sh.I. Botirova, D. Qarshiyeva, G.N. Sharipova, N.M. Koshanova va boshqa ko‘plab o‘zbek tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida pedagogik ta’lim klasteri asosida mintaqaviy ta’lim turlari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash, sifat samaradorligini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha innovatsion g‘oyalarni joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va ularning amaliy tatbiqi borasida samarali tajriba tahlillari bayon qilingan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta’lim sifati samaradorligini oshirish keng jamoatchilik bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, bunda mavjud vakillik organlarining o‘rni muhimdir. Ular tomonidan sifatli ta’limni samarali ta’minlash rejalarini ishlab chiqish, oliy ta’lim muassasalarini jihozlar va kerakli axborot resurslari bilan ta’minlash, sifatli ta’limga to‘sqinlik qiluvchi omillarni hal etish chora-tadbirlari ishlab chiqilishi asosiy usullardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim sifati ta’limning maqsadi va strategiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Vaholanki, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari ta’limida aniq belgilangan maqsadning yo‘qligi, uning noaniqligi va an’anaviy ta’lim strategiyasining saqlanib qolganligi uning samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Ta’lim jarayonining sifat samaradorligini oshirishga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatmoqda, jumladan:

- har bir talaba uchun uning qobiliyati va qiziqishini hisobga olgan holda ta’limni rivojlantirishga doir universal psixologik va pedagogik nazariyaning yo‘qligi;
- oliy ta’limda reproduktiv ta’lim texnologiyalarining ommaviy amaliyotida fikrlashning samarali turlarini rivojlantirish emas, balki tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarning saqlanib qolganligi;
- o‘qituvchilarning iqtidorli bolalar bilan ishlash bo‘yicha nazariy jihatdan yo‘naltirilmaganligi, ularning bolalarning qobiliyatiga nisbatan kognitiv faollik darajasiga yetarlicha baho bera olmasligi;
- ta’limning ijtimoiy motivatsiyasining pasayishi va umuman jamiyatning ma’naviy-madaniyati.

Olib borilayotgan tadqiqot davomida ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi yuqorida ko‘rsatilgan omillar tahlili va ularni hal etish usullari taqdim etiladi. Ta’lim tizimini zamonaviylashtirishda yangicha innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish jamiyatning pirovard maqsadlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Vaholanki, ta’lim tizimida bu kabi amaliyotlarni rivojlantirish murakkab iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy boshqaruvni tashkil etishdan boshlanadi.

Talabaning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi esa ta’lim sifatini ta’minlashdagi keyingi o‘rinda turadigan muhim xususiyatlar sirasiga kiradi. Natijalar tahliliga ko‘ra, insonda doimiy o‘zgarishga intilish, hayotda yuqori natijaga erishish uchun harakat qilish qobiliyati, mas’uliyat, tizimga moslashuvchanlik, o‘z pozitsiyasini aql bilan boshqarish va tashqi ta’sirlardan himoya qilish, shuningdek, shaxs sifatida o‘zini anglash qobiliyati – bularning barchasi ta’lim sifatini ta’minlashda muhim omillar sanaladi. Ta’lim sifatini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan insonparvarlashtirish va demokratlashtirish tamoyillariga ham alohida e’tibor qaratilishi lozim. Bugungi kunda o‘qituvchining talabani doimiy siquvda ushlab turishi, majburiyatlar yuklashi, talablarni kuchaytirish orqali ta’lim sifatini oshirishga urinishlari ta’lim tizimini zamonaviylashtirishda jiddiy to‘siq bo‘lib qolmoqda.

O‘quv jarayonining sifati quyidagi omillardan iborat:

- o‘quv dasturining sifati (mukammal ishlab chiqilganlik holati);
- professor-o‘qituvchilar tarkibi (ilmiy tadqiqotlarni olib borish darajasi, ijodiy fikrlash, kelajakni ko‘ra bilish qobiliyati);
- talabalar kontingenti (auditoriyada talabalar sonining me’yordan oshishi yoki me’yorlarga muvofiqligi);
- o‘quv jarayonining o‘quv uskunalar va texnologiyalar bilan ta’minlanganligi;

- ta'lim tizimi jarayonlarini boshqarish mexanizmi (oʻqituvchining oʻquv yuklamasi hajmi yoki yuklamadan tashqari ishlarga jalb etilish holati).

Ta'lim jarayoni sifatini oshirishda quyidagi yondashuvlarga rioya qilish zarur:

- talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida turli tanlovlar oʻtkazish, muayyan ijodiy natijalarga erishgan talabalarni ragʻbatlantirish mexanizmini ishlab chiqish va ularga boshqa oliy ta'lim muassasalarida boʻlish imkoniyatini taqdim etish;
- yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, ya'ni taqdimotlarni tayyorlashning yangi versiyalari va ma'lumotlarni avtomatik yangilovchi ilovalarni ishlab chiqish, internet resurslaridan, raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish;
- oʻquv mashgʻulotlarini samarali tashkil etish: oʻqituvchilarning yangi moddiy bazalarni oʻzlashtirishi va ularni amalda qoʻllashi, shuningdek, intellektual salohiyatni oshirishning rivojlangan mexanizmlaridan foydalanish, boshqa oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini yoʻlga qoʻyish va hokazo.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim sifati har qanday davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sifati bilan belgilanuvchi intellektual salohiyat jamiyat farovonligining muhim omiliga aylanmoqda.

"Sifat" tushunchasi turlicha, ba'zan bir-biriga zid ma'noda talqin qilinadi. Pedagogika fanida bu tushuncha:

- bir predmet yoki hodisani boshqasidan farqlovchi muhim belgilar, xususiyatlar, oʻziga xosliklar;
- yoki xususiyat, qadr, yaroqlilik darajasi, ma'naviy-ahloqiy kategoriya, ba'zan sof iqtisodiy tushuncha sifatida talqin etiladi.

Ba'zi olim va amaliyotchilar bu tushunchani ta'lim tizimining oʻzlashtirish sifatiga erishishga intilishi, boshqalar esa oʻqitish va tarbiyalash sifatiga bogʻlaydilar. Yana boshqalar shaxs iqtidori rivojlanish darajasining oshishini yoki oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan oʻrta ta'lim va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari sonining koʻpayishini, ayrimlar esa oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining ijtimoiy hayotga tayyorgarligi darajasini tushunadilar.

Ta'lim sifati va uni ta'minlovchi omillar – ta'lim mazmunining fundamentalligi, ehtiyojlarning qondirilishi, maqsad va natijalarning mutanosibligi, ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlashi, ijodiy faoliyat, boshqaruvga kompleks yondashuv, fanlararo integratsiya va boshqa koʻplab jihatlar oʻrtasidagi bogʻliqlik haqida turli qarashlar mavjud.

Ta'lim sifati – bu nafaqat ta'lim oluvchilarning bilim darajasi davlat standartlariga mos kelishi, balki ta'lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, har bir pedagog va rahbarning ta'lim xizmatlari sifatini ta'minlashdagi faoliyatidir. Zamonaviy ta'lim muassasasida ta'lim sifati – bu erishilgan miqdoriy va sifat koʻrsatkichlari, oʻquv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish darajasi, uni amalga oshirish sharoitlarini aks ettiruvchi tavsiflar toʻplamida ifodalanuvchi maqsad va natijalarning oʻzaro nisbatidir. Ta'lim sifatini boshqarish (ta'lim sifati menejmenti) – bu ta'lim tizimini boshqarishning umumiy tuzilmasi tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunda rahbarning yakkaboshchiligi asos boʻlib xizmat qiluvchi chiziqli boshqaruv strukturasi inkor etilmaydi, balki sifat menejmentining joriy etilishi orqali umumiy boshqaruv samaradorligi oshadi. Bu esa rahbar, xodimlar va manfaatdor jamoat tashkilotlari oʻrtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Vazifalarning ketma-ketligi, mazmuni, bajarish usullari va uslublari, ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv qarorlarining ijrosini kafolatlaydi. Sifat menejmentini joriy etish uchun rahbar quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- ta'lim muassasasining maqsadi, umumiy mafkurasi va rivojlanish tamoyillarini belgilab, strategik qaror qabul qilishi;
- tashkilot maqsadlariga sifatni ta'minlashni kiritish, uni ma'naviy va moddiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash;
- tashkilot oliy boshqaruv tarkibidan sifat uchun mas'ul vakilni tayinlash;
- statistika va sifat menejmenti sohalari boʻyicha (shu jumladan yuqori rahbarlar tarkibidan) xodimlarni tayyorlash;
- ichki iste'molchilarning fikr va talablarini inobatga olgan holda, xodimlar bilan qayta aloqani yoʻlga qoʻyish;
- ichki audit va kamchiliklar tahlilini muntazam oʻtkazib borish.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va samaradorlikni ta'minlash faqat o'quv jarayonining samarali tashkil etilishiga bog'liq emas, balki pedagogik yondashuvlarning yangilanishi va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga ham bog'liqdir. O'qituvchilarning malakasi, talabalarning o'zlashtirishi va pedagogik metodlarni joriy etish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'limni yangilash va takomillashtirish jarayonida zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llash ta'lim tizimini yanada samarali va sifatli qilishga yordam beradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sifati ko'p o'lchovli tushunchadir. Shuning uchun uni oshirish jarayonida ta'lim sifatiga quyidagi jihatlar asosida yondashishni tavsiya etamiz:

- jamoatchilik vakillari, ishlab chiqarishdagi mutaxassislar va boshqalarni qamrab olish, manfaatdor tomonlarni jalb qilish, sifatni boshqarish yondashuvlarini joriy etish orqali ularning ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish;
- jarayonni boshqarishning uzluksizligini ta'minlash, o'quv jarayonidagi ishlab chiqarish yoki tanishuv amaliyotlarini samarali tashkil etish;
- o'rganishning huquqiy va tashkiliy asoslarini ishlab chiqish va qo'llash, samarali faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar faoliyatiga asoslangan amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;
- ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish orqali ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya va o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish hamda tuzilmalar manfaatdorligini oshirish.

Sifatni va sifat menejmenti tizimi samaradorligini miqdoriy baholash zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-5841063
2. Барбер М., Доннелли К., Ризви С. Накануне схода лавины. Высшее образование и грядущая революция // Вопросы образования. – 2013. – № 3. – С. 152–236.
3. Шаев Д.А. Развитие инфраструктуры туристской индустрии в Узбекистане // Вопросы науки и образования. – 2018. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-infrastrukturyturistskoy-industrii-v-uzbekistane/
4. Парпиева М.М. Новые образовательные технологии как механизм повышения качества подготовки высококвалифицированных специалистов // Сборник материалов I Международной научно-практической конференции "Актуальные проблемы внедрения инновационной техники и технологий на предприятиях по производству строительных материалов, химической промышленности и в смежных отраслях". – 24-25 мая 2019 года. – Т. 2.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №6**



© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.